


## 2020-yil 1-fevral holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning yanvar oyida Farg'ona viloyatida 520 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5,6 mingta (18,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 36,4 mingtani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-fevral holatiga 36 370 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,5 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 26,1 % savdoda, 3,9 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.02.2020 yil	
	01.02.2019 yil	01.02.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>30 730</b>	<b>36 370</b>	<b>18,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 573	1 767	12,3	4,9
Sanoat	6 518	7 812	19,9	21,5
Qurilish	2 533	2 944	16,2	8,1
Savdo	7 052	9 481	34,4	26,1
Tashish va saqlash	1 228	1 433	16,7	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 447	1 775	22,7	4,9
Axborot va aloqa	1 000	1 047	4,7	2,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	711	825	16,0	2,3
Boshqa turlari	8 668	9 286	7,1	25,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9 481 ta) savdo, (7 812 ta) sanoat, (2 944 ta) qurilish, (1 767 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1 775 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1 433 ta) tashish va saqlash, (1 047 ta) axborot va aloqa, (825 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9 286 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 35 729 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 422 ta (17,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,1 % savdo, 21,6 % sanoat, 8,1 % qurilish, 4,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,4 % boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Farg'ona shahri (6 393 ta), Qo'qon shahri (4 786 ta), Marg'ilon shahri (3 622 ta), Uchko'prik tumani (1 848 ta) va Dang'ara tumani (1 696 ta), Oltiariq tumani (1 612 ta), O'zbekiston tumani (1 606 ta) hamda Quva (1 545 ta) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.


## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar oyida 520 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 41,5 foizga kamaygan.

**Yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning  
yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (92 ta), Qo'qon (78 ta), Quvasoy (21 ta), Marg'ilon shaharlarida (52 ta), Oltiariq (24 ta), Quva (20 ta) va O'zbekiston (21 ta), Buvayda (14 ta), Dang'ara (21 ta), Qo'shtepa (11 ta), Bog'dod (19 ta), Beshariq (15 ta), Uchko'prik (35 ta), Rishton (23 ta), Toshloq (21 ta), Farg'ona (23 ta), Furqat (9 ta), So'x (6 ta) hamda Yozyovon tumanlarida (15 ta) tashkil etilgan.

## 2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar, sanoatda (100 ta), savdoda (227 ta), qurilishda (45 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (17 ta), tashish va saqlashda (19 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (20 ta), axborot va aloqada (16 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (13 ta), boshqa turlarda (63 ta) tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2020-yil 1-fevral holatiga 29 802 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9 971 ta, oilaviy korxonalar – 3 694 ta, mas'uliyati heklangan jamiyatlar – 15 479 ta va boshqalar 658 tani tashkil etgan.



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2020-yil 1-fevral holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 427 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 43,8 % ga o'sgan. Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi xissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-fevral holatiga xorijiy kapital ishtirokida 422 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, Farg'ona shahar 141 ta (33,5 %), Qo'qon shahar 56 ta (13,3 %), Marg'ilon shahar 22 ta (5,2 %), Quvasoy shahar 23 ta (5,5 %), Farg'ona tumanida 24 ta (5,7 %), So'x tumani 4 ta (0,9 %), Furqat tumani 5 ta (1,2 %), Qo'shtepa tumani 8 ta (1,9 %), Bag'dod tumani 9 ta (2,1 %), Buvayda tumani 9 ta (2,1 %) va Yozyovon tumani 5 ta (1,2 %) xissalariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida o'sish surati, birlikda**




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 285 tasi qo'shma, 137 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




### Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>422</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona shahar	141	33,5
Qo'qon shahar	56	13,3
Quvasoy shahar	23	5,5
Marg'ilon shahar	22	5,2
<i>Tumanlar:</i>		
Oltiariq tumani	19	4,5
Qo'shtepa tumani	8	1,9
Bog'dod tumani	9	2,1
Buvayda tumani	9	2,1
Beshariq tumani	6	1,4
Quva tumani	17	4,0
Uchko'prik tumani	12	2,8
Rishton tumani	10	2,4
So'x tumani	4	0,9
Toshloq tumani	14	3,3
O'zbekiston tumani	20	4,7
Farg'ona tumani	24	5,7
Dang'ara tumani	18	4,3
Furqat tumani	5	1,2
Yozyovon tumani	5	1,2

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yilning yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 10 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga kamaygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Farg'ona 3 ta (30,0 %), Qo'qon 2 ta (20,0 %), Quvasoy 1 ta (10,0 %) shaharlarida, Dang'ara tumanida 1 ta (10,0 %), Toshloq tumani 1 ta (10,0 %), Uchko'prik tumani 1 ta (10,0 %), Bog'dod tumani 1 ta (10,0 %) xissalariga to'g'ri keladi.


### 2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, davlatlar kesimida



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Rossiya Federatsiyasi – 3 ta, Fransiya Respublikasi - 1 ta, Saudiya Arabistoni Qirolligi - 1 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yuritishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 5 ta, savdoda 1 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligida 1 ta, qurilishda 1 ta va boshqa korxonalarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-fevral holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 30,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-fevral holatiga qaraganda 21,6 % ga oshgan.

Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5 464 tasi (18,2 %) Farg'ona, 4 242 tasi (14,1 %) Qo'qon, 3 279 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1 642 tasi (5,5 %) Uchko'prik va 1 465 tasi (4,9 %) Dang'ara tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiga nisbatan ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Farg'ona shahar  
18,3 %



Beshariq tumani  
2,7 %



Qo'qon shahar  
14,2 %



Rishton tumani  
2,7 %



Marg'ilon shahar  
11,0 %



Furqat tumani  
2,2 %



Uchko'prik tumani  
5,3 %



So'x tumani  
2,2 %



Dang'ara tumani  
4,9 %




Yozyovon tumani  
1,9 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 30 085 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 9 446 tasi (31,4 %) - savdoda, 7 761 tasi (25,8 %) - sanoatda, 2 926 tasi (9,7 %) - qurilishda, 1 708 tasi (5,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1 767 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 418 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 1 045 tasi (3,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 633 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3 381 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari xissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






2020-yil yanvar oyida 487 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2019-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 747 taga kamaygan. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (88 ta), Qo'qon (77 ta), Marg'ilon (52 ta) shaharlarida, Oltiariq (23 ta) va Buvayda (13 ta), So'x (6 ta), Furqat (8 ta) hamda Yozyovon (14 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda savdoda (227 ta), sanoatda (98 ta), boshqa turdagi xizmatlar (33 ta), qurilishda (45 ta), tashish va saqlashda (19 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (16 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (20 ta), axborot va aloqada (16 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (13 ta) tashkil etilgan.

### **Oilaviy korxonalar**


2020-yil 1-fevral holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 3 759 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga qaraganda 823 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkun.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga 3 759 tani tashkil etib, ulardan 3 694 tasi yoki 98,3 % faoliyat yuritadi.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,5 % yoki 1 682 tasi sanoat, 14,2 % yoki 523 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,5 % yoki 719 tasi savdo, 7,4 % yoki 273 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,0 % yoki 73 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 33 tasi axborot va aloqa,

1,2 % yoki 43 tasi qurilish, 1,0 % yoki 36 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,3 % yoki 312 tasi boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida asosiy qismi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo xissasiga to'g'ri keladi.


### 2020-yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	43	100,0

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>43</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona shahar	1	2,3
Qo'qon shahar	1	2,3
Quvasoy shahar	3	7,0
Marg'ilon shahar	4	9,3
Oltiariq tumani	2	4,7
Qo'shtepa tumani	1	2,3
Bog'dod tumani	4	9,3
Buvayda tumani	1	2,3
Beshariq tumani	3	7,0
Quva tumani	2	4,7
Uchko'prik tumani	3	7,0
Rishton tumani	6	13,9
So'x tumani	1	2,3
Toshloq tumani	4	9,3
O'zbekiston tumani	4	9,3
Farg'ona tumani	2	4,7
Dang'ara tumani	1	2,3
Furqat tumani		
Yozyovon tumani		

2020-yil yanvar oyida 43 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 139 taga kamaygan. Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni Farg'ona shahar (1 ta), Marg'ilon shahar (4 ta) va Rishton (6 ta), Farg'ona (2 ta), Oltiariq (2 ta), Buvayda (1 ta) hamda Beshariq (3 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,2 % yoki 16 tasi sanoat, 37,2 % yoki 16 tasi savdo, 9,3 % yoki 4 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 2,3 % yoki 1 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yoki 2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,3 % yoki 4 tasi boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Viloyat statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi

**Tel.:71-230-87-37**

